

## AMIR TEMUR HUKUMRONLIK DAVRI SAN’ATI TARIXINI O’RGANISHDA YOZMA MANBALARNING O’RNI

**Azizov Ikromjon Shadibayevich**

Ilmiy rahbar, Tarix fanlari bo’yicha (PhD) falsafa doktori  
Perfect-university Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,  
Orcid id: 0009-0005-9179-070X , Tel.: +99833 747-96-11 ,  
e-mail: [azizov.ikrom@perfectuniversity.uz](mailto:azizov.ikrom@perfectuniversity.uz)

**Bozorboyev To’lqin Boboburod o’g’li**

Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix 4-bosqich talabasi  
Orcid id: 0009-0007-6007-6524 Tel.: +99893 965-30-30,  
e-mail: [@Tolqin\\_Bobomurodovich.com](mailto:@Tolqin_Bobomurodovich.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20444435>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Temuriylar davri san’ati tarixini o’rganishda yozma manbalarning o’rni va manbashunoslik ahamiyati tahlil qilinadi. Temuriylar davriga oid me’moriy yodgorliklarning bir qismi bizgacha to’liq yetib kelmagani, ayrim tasviriy san’at namunalari esa parchalanib yoki yo’qolib ketgani bois, ushbu davrning badiiy, me’moriy va marosimiy muhitini tiklashda yozma manbalar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Maqolada saroy tarixchilari bitiklari, tazkiralar, xotiralar, safarnomalar va tarixiy asarlar asosida Temuriylar davri san’ati, madaniy muhiti, homiylik an’analari va ijodkorlar doirasi yoritiladi. Xususan, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Ibn Arabshoh, Ruy Gonsales de Klavixo, Fasih Ahmad Xavofiy hamda Abdurazzoq Samarqandiy asarlarining manbashunoslik qimmatini ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** Temuriylar, yozma manbalar, manbashunoslik, Zafarnoma, Majolis un-nafois, Boburnoma, Matlai sa’dayn, saroy madaniyati, san’at tarixi.

## THE ROLE OF WRITTEN SOURCES IN STUDYING THE HISTORY OF TIMURID ART

**Abstract.** This article analyzes the role and source-study significance of written sources in researching the history of Timurid art. Since some architectural monuments of the Timurid period have not survived intact and certain works of visual art have been lost or preserved only fragmentarily, written sources are of special scholarly importance for reconstructing the artistic, architectural, and ceremonial environment of the age. The article examines court chronicles, biographical anthologies, memoirs, travel accounts, and historical works as sources for Timurid art, cultural life, patronage traditions, and circles of intellectuals and artists. In particular, it discusses the source value of the works of Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Alisher Navoi, Zahir al-Din Muhammad Babur, Dawlatshah Samarqandi, Zayn al-Din Wasifi, Ibn Arabshah, Ruy González de Clavijo, Fasih Ahmad Khwafi, and Abd al-Razzaq Samarqandi.

**Keywords:** Timurids, written sources, source studies, Zafarnama, Majalis un-nafa’is, Baburnama, Matla’ al-sa’dayn, court culture, art history.

## РОЛЬ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ИСКУССТВА ЭПОХИ ТИМУРИДОВ

**Аннотация.** В данной статье анализируются роль письменных источников и их источниковедческое значение в изучении истории искусства

эпохи Тимуридов. Поскольку часть архитектурных памятников тимуридского времени не сохранилась полностью, а отдельные образцы изобразительного искусства дошли до нас фрагментарно либо были утрачены, письменные источники приобретают особую научную значимость для реконструкции художественной, архитектурной и церемониальной среды эпохи. В статье на основе дворцовых хроник, тазкир, мемуаров, путешествий и исторических сочинений раскрываются вопросы искусства, культурной среды, традиций покровительства и круга творческой интеллигенции эпохи Тимуридов. Особое внимание уделено источниковедческой ценности трудов Низамиддина Шами, Шарафуддина Али Язди, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабур, Давлатшаха Самарканди, Зайниддина Васифи, Ибн Арабшаха, Руи Гонсалеса де Клавихо, Фасиха Ахмада Хавафи и Абдураззака Самарканди.

**Ключевые слова:** Тимуриды, письменные источники, источниковедение, Зафарнама, Маджалис ун-нафоис, Бабурнама, Матлаи саъдайн, дворцовая культура, история искусства.

**Kirish.** Temuriylar davri san’ati tarixini o’rganishda yozma manbalar alohida o’rin tutadi. Chunki bu davrga oid me’moriy yodgorliklarning bir qismi vayron bo’lgan, ayrim tasviriy san’at namunalari esa bizgacha to’liq yetib kelmagan. Shu bois temuriylar davrining me’moriy, badiiy, marosimiy va madaniy muhitini tiklashda tarixiy asarlar, tazkiralalar, safarnomalar, xotiralar hamda saroy tarixchilari bitiklari muhim manba vazifasini bajaradi.

Mazkur manbalar tarkibi va xarakteriga ko’ra turlicha. Ularning bir qismi bevosita temuriylar saroy muhiti bilan bog’liq bo’lib, hukmdor topshirig’i yoki saroy ehtiyoji asosida yaratilgan. Boshqa bir qismi esa voqealarni tashqi kuzatuvchi, zamondosh guvoh yoki keyingi davr tarixchisi nigohi orqali yoritadi. Aynan mana shu xilma-xillik temuriylar davri san’atini biryoqlama emas, balki qiyosiy va ko’p qirrali tarzda o’rganish imkonini beradi.

Temuriylar davri tarixini o’rganishda Zafarnomalar, tazkiralalar va safarnomalar alohida ahamiyatga ega. Majolis un-nafois XV asr adabiy-madaniy muhitining keng doirasini ko’rsatib bersa, Boburnoma temuriylar merosining davomiyligini anglashga xizmat qiladi. Klavixo kundaligi esa Samarqand saroyi va shahar madaniyatini tashqi kuzatuvchi nigohi bilan yoritishi bilan qimmatlidir.

**Asosiy qism.** Temuriylar davri madaniy-ma’rifiy hayotini o’rganishda Nizomiddin Shomiyning Zafarnomasi asosiy tarixiy manbalardan biridir. Ushbu asar Amir Temur topshirig’i bilan yozilgan bo’lib, 1404-yil bahorigacha bo’lgan voqealarni qamrab oladi [1]. Garchi asar ko’proq siyosiy-harbiy voqealarni yoritishga qaratilgan bo’lsa-da, unda saroy muhiti, qurilishlar, yurishlar natijasida shakllangan madaniy makon va hukmdor homiyligi bilan bog’liq qimmatli ma’lumotlar ham uchraydi. Shuning uchun Shomiy asari Temuriylar davri san’atini bevosita tasvirlamasam ham, uning tarixiy va mafkuraviy fonini tiklashda zarur tayanch manba bo’lib xizmat qiladi [1].

Sharafuddin Ali Yazdiyning Zafarnomasi ham temuriylar davriga oid eng muhim birlamchi manbalardan biridir. Muallifning Shohrux va Ibrohim Sulton saroylari bilan yaqin aloqada bo’lgani ushbu asarning manbashunoslik qimmatini yanada oshiradi [2]. Asarda voqealar tantanavor uslubda bayon etilgan bo’lsa-da, unda temuriy hukmdorlarning siyosiy nufuzi bilan birga ularning bunyodkorlik faoliyati, saroy madaniyati, diniy-ma’rifiy muhit va estetik qarashlari haqida ham muhim dalillar mavjud. Shu bois Zafarnoma nafaqat voqealar ketma-ketligini tiklash, balki temuriylar davri madaniy siyosatining ideologik asoslarini anglashda ham muhim manbadir [2].

Temuriylar davri san’ati va madaniy muhitini, ayniqsa so‘nggi temuriylar davrini o‘rganishda Alisher Navoiyning Majolis un-nafois asari beqiyos ahamiyatga ega. Bu tazkirada yuzlab ijodkorlar, shoirlar, musavvirlar va ziyolilar haqida ma’lumot berilishi XV asr badiiy-intellektual muhiti naqadar keng va sermahsul bo‘lganini ko‘rsatadi [3]. Asarning ayrim majlislarida temuriy hukmdorlarning madaniy qarashlari, homiylik faoliyati va saroyning ijod ahliga munosabati haqidagi ma’lumotlar san’at tarixini o‘rganish uchun ayniqsa qimmatlidir. Majolis un-nafois 459 ga yaqin shaxs haqidagi ma’lumotlarni jamlagani bilan ham o‘z davrining madaniy manzarasini tiklashda alohida o‘rin tutadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnomasi ham temuriylar davri madaniyati, ayniqsa uning davomiyligi va merosini o‘rganishda muhim manbalardan sanaladi. Asar avtobiografik xarakterga ega bo‘lsa-da, unda temuriyzodalar, saroy muhiti, madaniy hayot, shoirlar, san’at arboblari va ayrim me’moriy inshootlar haqida e’tiborga loyiq ma’lumotlar uchraydi [4]. Bobur Husayn Boyqaro davri ijodiy muhitini tilga olar ekan, temuriylar davri san’ati va adabiyoti haqidagi tasavvurlarni boyitadi. Asarning 1948-yilgi ikki jildli nashri ilmiy muomalada muhim o‘rin tutgan nashrlardan biridir.

Davlatshoh Samarqandiyning Tazkirat ush-shuaro asari ham temuriylar davri madaniy muhitini yorituvchi muhim manbalardan biridir. Asar muqaddima, xotima va yetti qismdan iborat bo‘lib, so‘nggi bo‘limlarida Amir Temur va temuriylar davrida yashagan shoirlar, ijodkorlar va olimlar haqida ma’lumotlar beriladi [5]. Ushbu manba badiiy muhitning ijtimoiy tarkibini, ijodkorlar doirasining kengligini va saroy bilan ijod ahli o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishi bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Zayniddin Vosifiyning Badoe’ ul-vaqoe’ asari temuriylar va ulardan keyingi ilk davr madaniy muhitini yoritishda noyob manbalardan hisoblanadi. Unda XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi she’r majlislari, adabiy muhit, saroy hayoti, marosimlar va ijodiy davralar haqidagi ma’lumotlar saqlangan [6]. Ushbu asar yordamida so‘nggi temuriylar davrida san’at va adabiyotning jamiyatdagi mavqeini ancha aniq tasavvur qilish mumkin.

Ibn Arabshohning Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur asari o‘zining tanqidiy ruhi bilan boshqa saroy manbalaridan farq qiladi. Muallif Amir Temurga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lgan bo‘lsa-da, asarda temuriylar davri olimlari, san’at ahli va saroy muhitiga doir muhim dalillar mavjud [7]. Manbaning biryoqlama xarakteri uni ehtiyotkorlik bilan qo‘llashni talab etadi, biroq aynan shuning o‘zi ham uni qiyosiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qimmatli qiladi. Chunki u saroyga yaqin tarixchilarning madhiyaviy uslubidan farqli manzarani beradi.

Temuriylar davri me’moriy va saroy madaniyatini o‘rganishda tashqi kuzatuvchi manbalar ham katta ahamiyatga ega. Ruy Gonsales de Klavixoning Samarqandga safar kundaligi shular jumlasidandir. Elchi sifatida Temur saroyiga tashrif buyurgan muallif Samarqand shahri, saroylar, bog‘lar, bazmlar, qabul marosimlari va bunyodkorlik ko‘lami haqida bevosita kuzatuvlarga asoslangan ma’lumotlar beradi [8]. Shu sababli bu asar temuriylar davri shahar madaniyati va estetik muhitini tiklashda benihoya muhimdir. 1990-yilgi ruscha nashrning bibliografik ma’lumotlari ham bu asarning ilmiy muomaladagi barqaror o‘rnini ko‘rsatadi.

Fasih Ahmad Xavofiyning Mujmali Fasihiy asari, Afanasiy Nikitinning Uch dengiz osha sayohati va boshqa tashqi manbalar temuriylar davri ijtimoiy-madaniy hayotiga oid ayrim muhim tafsilotlarni saqlagan [9][10]. Bunday manbalar, ayniqsa, ichki saroy manbalari bilan qiyosiy o‘rganilganda, voqelikni biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali tarzda tiklash imkonini beradi.

Temuriylar davri san’ati tarixini o‘rganishda eng muhim tayanch manbalardan biri, shubhasiz, Abdurazzoq Samarqandiyning Matlai sa’dayn va majmai bahrayn asaridir. Bu asar XV

asr Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixini yoritishda nihoyatda qimmatli bo'lib, ayniqsa temuriylar saroy muhiti, diplomatik aloqalar, ilmfan, san'at, bunyodkorlik va madaniy munosabatlarni o'rganishda birlamchi manba vazifasini bajaradi [11]. Asarning qimmati shundaki, uning muallifi temuriylar saroyida xizmat qilgan, diplomatik topshiriqlarda qatnashgan va voqealarning ko'piga bevosita guvoh bo'lgan shaxsdir. 2008-yilgi nashrlar ushbu manbaning bugungi tadqiqotlar uchun ham asosiy tayanch bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Abdurazzoq Samarqandiyning hayoti va faoliyati ushbu asarning manbashunoslik ahamiyatini yanada oshiradi. U Hirotda tug'ilgan, saroy xizmatiga kirgan, diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan, Shohrux va undan keyingi temuriy hukmdorlar davrida diplomatik va davlat ishlari bilan shug'ullangan [12]. Uning Hindiston, Gilon va boshqa hududlarga elchilik safarlari, saroy ichidagi faoliyati va voqealarni yozib borishi Matlai sa'daynni oddiy tarixiy bitik emas, balki yuksak darajadagi kuzatuv va tajriba mahsuliga aylantirgan.

Mazkur asarning yana bir muhim jihati shundaki, uning qo'lyozma nusxalari dunyoning ko'plab kutubxona va fondlarida saqlanadi. Bu holat bir tomondan asarning tarixiy nufuzini, ikkinchi tomondan esa uning ilmiy muomaladagi keng tarqalganini ko'rsatadi [13]. Asarning Hindiston va Xitoy safarnomalari esa temuriylar davri tashqi aloqalari bilan bir qatorda madaniy ufqning kengligini ham ko'rsatadi [14]. Shu tariqa, Matlai sa'dayn Temuriylar davri san'ati tarixini o'rganishda eng serqatlam va universal yozma manbalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, temuriylar davri san'atini o'rganishda yozma manbalar bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. Saroy tarixchilari voqealarning ichki mantig'i va siyosiy-madaniy mafkurasini yoritgan bo'lsa, tazkiralalar ijodkorlar va badiiy muhit doirasini ochib beradi; safarnomalari esa tashqi kuzatuvchi nigohi orqali shaharlar, saroylar, bog'lar va marosimlar haqidagi tasavvurlarni boyitadi. Shu bois yozma manbalar temuriylar davri san'ati tarixini tiklashda eng ishonchli va asosiy tayanchlardan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Temuriylar davri san'ati tarixshunosligi turli davr va ilmiy maktablar doirasida shakllangan murakkab va ko'p qatlamli ilmiy yo'nalishdir. XX asr boshlaridagi dastlabki tadqiqotlarda asosan alohida me'moriy yodgorliklar va qurilish majmualari tavsiflangan bo'lsa, 1950–1960-yillarda mavzu me'morchilik doirasidan chiqib, miniatyura, musiqa, amaliy san'at, bog'rog'chilik, kiyim tarixi va kitobat madaniyatini ham qamrab ola boshladi. Shu tariqa Temuriylar davri san'atiga oid tarixshunoslik asta-sekin alohida yo'nalishlarga bo'linib, ilmiy faktologik baza bilan boyidi.

Mustaqillik yillarida esa Temuriylar davri san'ati tarixshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda avvalgi mafkuraviy talqinlar qayta ko'rib chiqildi va Temuriylar davri san'ati mahalliy an'analar, bunyodkorlik siyosati, madaniy homiylik va badiiy tafakkurning yuksak sintezi sifatida talqin qilina boshlandi. Xorij tarixshunosligida esa mavzu qiyosiy, kompleks va sivilizatsion yondashuvlar asosida o'rganilib, Temuriylar davri san'ati butun islom madaniy makonining yirik hodisalaridan biri sifatida baholandi. Demak, Temuriylar davri san'ati tarixshunosligi alohida san'at turlari tavsifidan iborat emas, balki yaxlit madaniy tizimni anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy maydondir.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Шомий Низомиддин. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов; таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.

2. Яздий Шарафуддин Али. Зафарнома / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: Фан, 1972. – 1270 б.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 13-жилд. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан, 1997.
4. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобирнома. – Тошкент, 1948. – 250 б.
5. Devletşah Semerkandî. Tezkire-i Devletşah / çev. Necati Lugal. – İstanbul, 1977.
6. Восифий З. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги АСН, 1979.
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темура тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – 1-китоб. – 328 б.; 2-китоб. – 192 б.
8. Клавихо Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406 гг.) / Перевод со староиспанского, предисловие и комментарии И.С. Мироковой. – М.: Наука, 1990. – 211 с.
9. Хавафи Фасих Ахмад. Мужмал-и Фасихи / Перевод, предисловие, примечания и указатели Д. Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с.
10. Никитин А.Н. Хождение за три моря Афанасия Никитина, 1466–1472 гг. – Л.: Изд-во АН СССР, 1958.
11. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. 1 қисм. 1405–1429 йил воқеалари / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳли луғатлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 632 б.
12. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. 2–3 қисмлар. 1429–1470 йил воқеалари / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳли луғатлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.
13. А. Ўринбоев, О. Бўриев. Ғиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси. – Тошкент: Фан, 1991.